NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

JAMIYAT TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDA TADBIRKOR SHAXS AXLOQIY ME'YORLARINING O' RNI

Qozoqov Sobirjon Zokirjonovich
Sotsiologiya fanlari bo' yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Namangan davlat universiteti
sqozaqov@mail.ru

Annotatsiya: *Maqola Yangi O' zbekistonda tadbirkor shaxsning axloqiy me'yorlarining ijtimoiy tahliliga bag' shlangan, axloqiy me'yorlarini o' ziga xos xususiyati, tadbirkorlik faoliyati rivojlantirish va tadbirkor shaxsni tarbiyalashda axloqiy me'yorlarning o' rni, shu jumladan ularning axloqiy me'yorlari tavsiflangan. Tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish amaliyotida axloqiy me'yorlarni ijtimoiy tahlili, jahon iqtisodiy xo' jaligida ommalashishi keltirilgan.*

Kalit so' zlar: *Tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkor shaxs, axloqiy me'yorlar, halollik, mas'uliyat, adolat, tadbirkorlik madaniyati.*

РОЛЬ ЭТИЧЕСКИХ СТАНДАРТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Аннотация: *Статья посвящена социальному анализу этических норм предпринимателя в Новом Узбекистане, описана специфика этих норм, роль этических норм в развитии предпринимательской деятельности и воспитании предпринимателя, включая его этические нормы. Представлен социальный анализ этических норм в практике формирования и развития предпринимательской деятельности, их популяризация в мировой экономике.*

Ключевые слова: *предприниматель, предпринимательская деятельность, предпринимательская личность, этические нормы, честность, ответственность, справедливость, предпринимательская культура.*

THE ROLE OF ETHICAL STANDARDS OF AN ENTREPRENEUR IN ENSURING THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Abstract: *The article is devoted to the social analysis of the ethical standards of an entrepreneur in New Uzbekistan, the specifics of their ethical standards, the role of ethical standards in the development of entrepreneurial activity and the upbringing of an entrepreneur, including their ethical standards, are described. The social analysis of ethical standards in the practice of forming and developing entrepreneurial activity, their popularization in the world economy are presented.*

Keywords: *Entrepreneur, entrepreneurial activity, entrepreneurial personality, ethical standards, honesty, responsibility, justice, entrepreneurial culture.*

Kirish

Globallashuv sharoitida tadbirkorlik faoliyati yutuqlarini ma'lum bir belgilangan «me'yorlar» bilan o' lchab bo' lmaydi, chunki faoliyatning bu sohasi jamiyatda shaxsdan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy erkinlikni talab etish bilan birgalikda, davlatni iqtisodiy rivojlantirishda, aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan, tadbirkorlik faoliyati kishilik jamiyati paydo bo' lganidan boshlab shakllangan. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi ma'naviy merosi «Avesto» kitobida ham tadbirkorlik haqida alohida ma'lumot berilgan. Bizga ma'lumki, «Avesto» nafaqat diniy balki, xalqlar tarixidan so' zlovchi manba bo' lib, unda Turon xalqlarining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug' ullanganliklari to' g' risida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, jamiyatning tarkibiy tuzilishi to' g' risida bir qator fikrlar uchraydi. «Qadimgi dehqonchilik mintaqalarida dastlab boshqaruv tizimining tepasida kohinlar turgan. Ular «chorva va yaylov egasi». Jangchi askarlar bu oriylar bo' lib, kohinlardan keyingi mulk egalari hisoblangan» [1. - B.25-26]. Bu mamlakatimiz hududlarida qadimdan mulkiy munosabatlar muntazam ravishda tartibga solib turilganligini anglatadi. Shu bilan birga, xalqaro savdo yo' llari ham vatanimiz hududlarida tadbirkorlik faoliyatining taraqqiy etishida muhim o' rin tutgan.

Adabiyotlar

Zamonaviy adabiyotlarda tadbirkorlik etikasining tegishliligi masalasi bo' yicha munozaralar mavjud. Ayrim olimlar uni amaliy axloq, raqiblari esa kasbiy etika deb tasniflaydilar. Ushbu mavzu bo' yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan tadqiqotchilarning ishlarini kuzatadigan bo' lsak, iqtisodiy etika va tadbirkorlik etikasi o' rtasidagi bog' liqlik

masalasi ham munozarali hisoblanadi. Masalan, rossiyalik tadqiqotchi V. N. Nazarovaning ta'kidlashicha, «Iqtisodiy va tadbirkorlik etikasining farqi shundaki, iqtisodiy axloqda axloqiy talablar subyekti birinchi navbatda davlat institutlari bo' lsa, tadbirkorlik etikasida bu alohida faoliyat yurituvchi korxonalardir» [2]. Shu munosabat bilan biz tadbirkorlikning axloqiy dialemmalarini individual etika (afzallik etikasi) nuqtai nazaridan ko' rib chiqamiz. Shu bilan birga, tadbirkorlik etikasini alohida menejerlarning shaxsiy etikasi doirasidan tashqariga chiqadigan biroz kengroq tushuncha sifatida belgilaymiz.

«Ishbilarmonlik etikasi» atamasi 1970-yillarning boshlarida keng ommaga ma'lum bo' ldi. Aynan o' sha paytda u Amerika tadbirkorlari faoliyatining axloqiy va ijtimoiy jihatlarini muhokama qilishda tez-tez ishlatila boshlandi. Tadbirkorlik etikasi 1980-yillarda, Amerika jamiyatida o' rta va yirik biznes vakillari o' rtasida sodir bo' lgan janjallar va qonunbuzarliklar atrofida keng muhokama qilingan paytda ommaviy axborot vositalarida tilga olindi. Aynan shu kabi hodisalarning jamoatchilik tomonidan qoralanishi ortidan yuzaga kelgan jiddiy muammolar tufayli kompaniyalarda yangi axloq ishlari bo' yicha administratsiya lavozimlari paydo bo' la boshladi. Birinchi axloq bo' limi 1985-yilda General Dynamics [3] tomonidan yaratilgan. 1990-yillarning o' rtalariga kelib, axloq bo' yicha mutaxassislar Yevropa va Qo' shma Shtatlardagi deyarli barcha tadbirkorlik institutlarida mavjud bo' lib, XX asrning oxiriga kelib ular dunyoning ko' plab korporatsiyalarida shtat jadvallarining bir qismiga aylandi. Rahbarlar va axloq bo' yicha maslahatchilar kompaniya faoliyatining ma'naviy jihatlari uchun javobgardirlar va kasbiy axloq kodeksini ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita ishtirok etadilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotni yoritishda tarixiylik, mantiqiylik, so' rov-anketa, kuzatish, qiyosiy tahlil, kontent-analiz, ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasidan kelib chiqib, tadbirkorlik axloqiga mualliflik ta'rifini berish maqsadga muvofiq. Tadbirkorlik axloqi bu – inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi zamonaviy tashkiliy standartlar, tamoyillar, qadriyatlar va me'yorlar to' plami. Berilgan ta'rifdan kelib chiqib, tadbirkorlik axloqi ikki jihatga ega: me'yoriy tadbirkorlik axloqi yoki tavsiflovchi tadbirkorlik axloqi.

Tahlil va natijalar

Tadbirkorlik axloqi sohasida boshqa sohalardagi kabi «dunyoga mashhur olimlar» ko' p bo' lmasa-da, ularning fikrlari ushbu sohaning asosiy asoslarini tashkil etadi. Tadbirkorlik axloqi shunchaki qoidalar to' plami sifatida emas, balki tadbirkorlik faoliyatining barqarorligi va daromadliligiga ta'sir qiluvchi murakkab falsafiy va ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi.

Olimlarning tadbirkorlik axloqi haqidagi fikrlari uning halollik, mas'uliyat va professionallik kabi asosiy tamoyillariga, shuningdek, axloqiy normalarning ilmiy faoliyat va jamiyatga ta'siriga tegishli hisoblanadi. Ular ishonch va taraqqiyotni saqlab qolish uchun axloqiy me'yorlarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Tadbirkor shaxs axloqi to' g' risidagi qarashlarni ilimiy tadqiqot sifatida ko' plab olimlar o' rgangan bo' lib, ularni bir nechta yo' nalishlarga ajratib ko' rsatishimiz mumkin. Bularga tadbirkorning axloqiy mas'uliyatiga falsafiy qarashlar, axloq va iqtisodiyot, tadbirkorlik axloqiga zamonaviy yondashuvlar va dolzarb muammolar kiradi.

Tadbirkorning axloqiy mas'uliyatiga falsafiy qarashlar yo' nalishining ko' zga ko' ringan vakillaridan biri Peter French hisoblanadi. Bu faylasuf tadbirkorlik axloqi sohasidagi asosiy mutafakkirlardan biridir. Uning ta'kidlashicha, tadbirkorlik faoliyati bilan shug' ullanuvchi uyushmalar, shaxslar singari, o' z harakatlari uchun axloqiy jihatdan javobgar bo' lishi mumkin, chunki ular qasddan harakat qilish imkonini beruvchi ichki qaror qabul qilish tuzilmasiga ega.

Ushbu yo' nalishning ko' zga ko' ringan vakillari Tomas Donaldson va Patrisiya Verxan hisoblanadi. Bu olimlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug' ullanuvchi uyushmalar axloqiy agentlar ekanligini tan olsalar-da, ularni «axloqiy shaxslar» deb hisoblash mumkin degan fikrga qo' shilmaydilar. Ularning fikricha, tadbirkorlik faoliyati bilan shug' ullanuvchi kompaniyalarda baxtni his qilish qobiliyati kabi muhim insoniy fazilatlar yo' q deb ta'kidlaydilar.

Tadbirkorlik axloqi barcha fan sohasi vakillarini bee'tibor qoldirmagan. Jumladan, Shotlandiyalik iqtisodchi va faylasuf, zamonaviy iqtisodiy nazariya va klassik siyosiy iqtisodning asoschisi Adam Smit hisoblanadi. Klassik iqtisodchi Adam Smit, o' z manfaati va ijtimoiy yaxshilik o' rtasidagi paradoksni hal qilishga birinchi bo' lib uringanlardan biri bo' lib, o' z manfaati oxir-oqibat butun jamiyat manfaatlari bilan bog' liqligini anglatuvchi «ma'rifatli egoizm» tushunchasini taklif qildi.

Adam Smitning «ma'rifatli egoizm» nazariyasi shuni ko' rsatadiki, o' z manfaatlarini ko' zlab, «bozorning ko' rinmas qo' li» doirasida harakat qilayotgan shaxslar bexosdan umumiy manfaatga hissa qo' shadilar va bu resurslarni samaraliroq taqsimlashga olib keladi. Bu tamoyil faqat o' z manfaati «ma'rifatli» bo' lganda, ya'ni uzoq muddatli oqibatlarni hisobga olganda va adolat chegaralaridan chiqmaganda qo' llaniladi. Shunday qilib, egoizm axloqqa qarshi emas, balki ijtimoiy normalar bilan cheklangan taqdirda jamoaviy farovonlik mexanizmiga aylanadi.

Bundan ko' rinib turibdiki, tadbirkor shaxsni shaxsiy manfaatlarga intilishi o' zini tuta bilishi va axloq bilan yumshatilishi mumkin degan fikr zamonaviy tadbirkorlik axloqida ham dolzarb bo' lib qolmoqda.

Nemis klassik sotsiologi M. Veber ham o‘ z asarlarida tadbirkorlik axloqi masalalariga alohida to‘ xtalib o‘ tgan. M. Veber tadbirkorlik faoliyatini nafaqat foyda olishga, balki qadriyatlarga ham bog‘ liqligini ko‘ rsatdi. U o‘ zining «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» asarida kapitalizm o‘ zini tuta bilish va kechiktirilgan qoniqishni talab qilishini ta’kidladi.

M. Veberning eng muhim yutug‘ i shundan iboratki, u har xil iqtisodiy faoliyat turlarini madaniy sharoitda (protestantlik oqimi orqali) ta’minlash konsepsiyasini taklif qiladi. «Protestantlik etikasi va kapitalizm ruhi» asarida M. Veber protestantizmning (Kalvinizm-protestant cherkovining izdoshlari) ma’lum bir turi yangi tadbirkorlik etikasining shakllanishiga olib keldi, bu esa o‘ z navbatida kapitalizmning oqilona shaklini rivojlantirdi [4. B. - 37].

Tadbirkorlik axloqi to‘ g‘ risidagi klassik qarashlar zamonaviy yondashuvlarni shakllanishiga asos bo‘ lib xizmat qildi. Tadbirkorlik axloqining zamonaviy yondashuvlarining ko‘ zga ko‘ ringan namyondalaridan Vikram Gandi bo‘ lib, u Garvard biznes maktabi professori hisoblanadi. Vikram Gandi tadbirkorlik axloqini jamiyat uchun yaratadigan tashqi ta’sirlar nuqtai nazaridan ko‘ rib chiqish mumkin, deb hisoblaydi. Uning nuqtai nazari ijobiy tashqi ta’sirlarni maksimal darajada oshirish va salbiy ta’sirlarni minimallashtirishga qaratilgan.

Shuningdek, Vikram Gandi tadbirkorlik axloqi nafaqat aktsiyadorlarga, balki jamiyat va atrof-muhitga ham foyda keltiradigan uzoq muddatli qarashga ustuvor ahamiyat berishi kerakligini ta’kidlaydi. U «uch tomonlama yakuniy natija»ga e’tibor qaratdi. Bu orqali tadbirkorlik faoliyati investitsiyalari va siyosatini himoya qilish kabi tashabbuslarni ijobiy ijtimoiy ta’sir vositasi sifatida ko‘ rish orqali asosiy tadbirkorlik strategiyasiga axloqiy mulohazalarni integratsiya qilishni qo‘ llab-quvvatlaydi.

V. Gandi fikricha, tadbirkorlikning axloqiy integratsiyasi yo‘ nalishlariga quyidagilar kiradi:

Muvofiqlikdan tashqari: Gandi axloqiy tadbirkorlikni shunchaki qoidalarga rioya qilishdan ko‘ proq narsa deb biladi. Bu tadbirkorlikning xodimlar, jamoalar va jamiyat bilan munosabatlariga bo‘ lgan qarashlarida tub o‘ zgarishni talab qiladi.

Mas’uliyatni singdirish: U mas’uliyatni alohida korporativ ijtimoiy mas’uliyat yoki barqarorlik bo‘ limi vazifasi sifatida ko‘ rib chiqish o‘ rniga, tadbirkorlik operatsiyalarining asosiga qo‘ shishni qo‘ llab-quvvatlaydi.

O‘ lchanadigan maqsadlar: Bunga o‘ lchanadigan inson huquqlari maqsadlarini belgilash, qarorlarga tegishli tekshiruvni kiritish va manfaatdor tomonlarga chinakam ovoz berish kiradi.

Tadbirkorlik axloqi bo‘ yicha zamonaviy vakillaridan biri Uorton maktabi olimi Brayan Berki hisoblanadi. U tadbirkorlik axloqi tanqidiy fikrlashni talab qilishini ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, shunchaki vijdonga amal qilishning o‘ zi yetarli emas; axloqiy qarashlarini doimiy ravishda takomillashtirish uchun o‘ z taxminlarini tahlil qilish va shubha ostiga qo‘ yish, shuningdek, boshqalarning fikrlariga ochiq bo‘ lish kerak. Masalan, u o‘ ziga qaram mahsulotlarni (masalan, smartfonlar yoki ijtimoiy tarmoqlar) ataylab yaratish axloqiy jihatdan shubhali deb hisoblaydi.

Umuman olganda tadbirkorlik axloqi to‘ g‘ risidagi yuqoridagi qarashlar Yangi O‘ zbekistondagi islohotlar sharoitida muhim ahamiyatga ega. Jumladan, tadbirkorlik shaxsda tadbirkorlik axloqini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining barcha sohalariga o‘ zining ijobiy ta’sirini ko‘ rsatmoqda. Buni mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga, uni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘ tarilganligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Buning isboti sifatida mamlakatimizda har yili 20-avgustni «Tadbirkorlar kuni» deb e’lon qilinganligini ko‘ rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2025-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan o‘ tkazgan ochiq muloqotida tadbirkorlarga davlatimiz tomonidan katta ishonch bildirilayotganini ko‘ rishimiz mumkin. Bu uchrashuvni Sh. Mirziyoyev ham yuqori baholab quyidagicha fikr bildirdi: «davlat va biznes o‘ rtasidagi o‘ zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladigan jonli va samimiy muloqot maydoni, desak, to‘ g‘ ri bo‘ ladi» [5]. Darhaqiqat, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish uchun ularga davlat tomonidan katta ishonch bildirilmoqda. Davlat tomonidan bildirilayotgan ishonch natijasida jamiyatimizning har bir sohasida tadbirkorlik faoliyatiga rivojlanib bormoqda. Uchrashuvda bu masalaga Sh. Mirziyoyev alohida to‘ xtalib shunday dedi: «har bir soha, har bir hudud, har bir mahalla – faqat tadbirkor harakat qilganida, ularga quloq tutib, ishonch bildirilganida rivojlanadi, obod bo‘ ladi» [5].

Xulosa

Yangi O‘ zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda shaxsning axloqiy me’yorlari allaqachon fanlar tizimi tomonidan shakllantirilgan bo‘ lib, sotsiologiya, etika, estetika va boshqa fanlar tomonidan nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sotsiologlar tomonidan alohida fan sifatida tadbirkorlik sotsiologiyasi tadbirkor shaxs axloqiy me’yorlarini ijtimoiy jihatdan o‘ rganishni axloqiy me’yorlar yo‘ nalishini shakllantirdi. Axborot jamiyati sharoitida tadbirkorlik sotsiologiyasi fanlararo xususiyatga ega bo‘ lib, ijtimoiy va gumanitar fanlarning jamoaviy sa’y-harakatlari bilan o‘ rganiladi. Tadbirkorlik axloqining shakllanish tarixi qadimgi davrga yetib boradi, xalq donoligini insoniy muloqotning maxsus shaklini, ijtimoiy munosabat va aloqalar rivojlanishining asosini aks ettiradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ ullanayotgan fuqarolarning o‘ z iqtisodiy faoliyatini halollik bilan olib borishida islom qadriyatlarining ahamiyati oshib borayotgani ijobiy hodisa hisoblanadi. Bu

o‘ z navbatida, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ ullanayotgan fuqarolar o‘ rtasida o‘ zaro ishonch asosida ijtimoiy munosabatlarga kirishishi uchun asos bo‘ lib xizmat qiladi.

Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida «Inson – jamiyat - davlat» tamoyilini amal qilishi shaxs omilining birinchi o‘ ringa chiqarilishi barcha sohalar va dolzarb masalalarda nafaqat davlat va jamiyat ma’silligini, ayni paytda insonning ma’suliyatdan holi bo‘ lmasligini anglatadi. Ya’ni tadbirkorlik faoliyatidagi ma’naviy muhit va ijtimoiy makon qiyofasini tadbirkor hamda mulkdorlarning shaxsiy xislat va fazilatlari, hayotiy pozitsiyasi, ishga va kasbiga munosabati, vijdoni va ma’suliyat hissi ham ko‘ p jixatdan belgilaydi.

Tadqiqot natijalari bizga aholining farovonligini ta’minlovchi sifatida tadbirkor shaxsni axloqiy me’yorlari bo‘ yicha tadqiqotlarning asosiy yo‘ nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Tadbirkor shaxsning axloqiy me’yorlari tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zarurat, tashkilotlar va korxonalarning ishlab chiqarish va mehnat faoliyati rentabelligini oshirishning profilaktik shakli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: Университет. 2007.

2. Назаров В. Н. Прикладная этика. – М.: Гардарики, 2005.

3. Басовский *Л*. Е. Менеджмент. – М.: Инфра-М, 2005.

4. Qozoqov S. «O‘ zbekistondagi islohotlar sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy omillari» Sotsiologiya fanlari bo‘ yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent-2023.

5. O‘ zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘ tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/8397